



O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

_____ hokimligi

maktabgacha va maktab ta'limi

bo'limi mas'ul masi

_____ maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi

_____ maktabgacha ta'lim tashkiloti

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILATI

_____ ning

_____ yil Yozgi sog'lomlashtirish ishlarini tashkil etish bo'yicha

METODIK TAVSIYA

MAKTABGACHA



O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining
2026-yil “26”-maydagi
185-son buyrug‘iga
1-ILOVA

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yozgi sog‘lomlik faoliyatlarini tashkil etish bo‘yicha

METODIK TAVSIYA

KIRISH

Maktabgacha yoshdagi bolalarning sog‘lomlik munosabatlarini shakllantirish, ularning jismoniy, ma’naviy, intellektual qobiliyatlarini shakllantirishda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining roli muhim ahamiyatga ega.

Yozgi davr bolalar uchun nafaqat dam olish, balki ularning sog‘ligini mustahkamlash, tabiat bilan yaqin munosabatlarini o‘rnatish, ekologik madaniyatni shakllantirish, yangi ko‘nikmalarni o‘rgatish va ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash uchun qulay sharoit yaratish uchun zarur.

Shuning uchun ham yozgi sog‘lomlik faoliyatlarini to‘g‘ri tashkil etish maktabgacha ta’lim tashkilotlarining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu metodik tavsiya maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yozgi davrni samarali ta’lim uchun bolalarga qiziqarli va pedagogik jihatdan mazmunli faoliyat sharoitlarini yaratishda, shuningdek, ularning salomatligini mustahkamlashga qaratilgan yozgi faoliyatlarini shakllantirishga ko‘maklashishdir.

Unda yozgi faoliyat bilan olib boriladigan faoliyat turlari, mehnat va dam olish tartibi, sog‘liqni saqlashni ta’minlash tadbirlari, ota-onalar ishtiroki, xavfsizlik texnologiyalarini qoidalar va amaliy jihatlar o‘z aksini topgan.

Metodika O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” 2020-yil 16-dekabrda O‘RQ-595-son, “Ta’lim to‘g‘risida” 2020-yil 16-dekabrda O‘RQ-637-son Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar

Majlisining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 2020-yil 22-dekabrda 802-son, “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 13-

dekabrda 391-son, “Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog‘lomlik faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2019-yil 25-iyuldagi 626-son qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi va Sog‘liqni saqlash vazirligining “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2018-yil 30-apreldagi 20/1, 10-qq/1-son qo‘shma qarorlariga (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 14-mayda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3012), O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining “O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim muassasalarining joylashuvi,

tuzilishi va tashkillashtirishga oid sanitariya-gigiyenik talablar” 2018-yil 27-apreldagi 0355-18-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 8-mayda hisobga olindi, hisob raqami 6-son), O‘zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya vrachining “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashkil etilishiga oid gigiyenik talablar” 2021-yil 17-iyuldagi 0016-21-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 26-iyunda hisobga olindi, hisob raqami 30-son), O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligining “Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida sog‘liqni saqlash xizmatini takomillashtirish to‘g‘risida” 2024-yil 11-dekabrda 18 va 19-son qarori va boshqa amaldagi mavjud me‘yoriy huquqiy hujjatlar asosida sog‘lom turmush tarzini rag‘batlantirish dasturlari va dasturlar asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, barcha yosh guruhidagi bolalar hamda ota-onalar uchun qo‘llanma vazifasini o‘taydi.

Yozgi sog‘lomlashtirish ishlarini o‘tkazish orqali bolalarning immunitetini oshirish, ularga tabiiy va parvarish qilish tuyg‘usini singdirish, jismoniy faollikni rag‘batlantirish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga erishiladi.

Metodik tavsiya maktabgacha ta’lim muassasalariga yozgi davrda bolalar bilan ishlash jarayonida yozgi sog‘lomlashtirish ishlarining kasbiy ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish va sog‘lomlashtirishga hissa qo‘shish maqsadida tayyorlangan. Undan samarali foydalanish orqali bir bolaning yozgi sog‘lomlashtirish davrini mazmunli, xavfsiz va samarali qilishga erishish mumkin.

I BOB. MAKTABGACHA TA’LIM VA TARBIIYA TO‘G‘RISIDA YOZGI SOG‘LOMLASHTIRISH ISHLARINING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Yozgi sog‘lomlashtirish davrining mazmuni va ahamiyati

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagoglar tomonidan bola (tarbiya) uchun yozgi sog‘lom rivojlanishi va ularning jismoniy, ma’naviy, intellektual qobiliyatlarini shakllantirishda O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi” 2019-yil 16-dekabrda O‘RQ-595-son qatnashgan bir qator ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Ushbu vazifalar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni sog‘lom, jismoniy va intellektual rivojlanishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berilishi, ularda bilim ko‘nikmalarni rivojlantirish, o‘quv yili davomida olgan bilimlarini mustahkamlash va barcha asosiy kompetensiyalarini shakllantirish (kommunikativ, jismoniy, shaxsiy, bilish va tanqidiy fikralash), sog‘lomlashtirish, chiniqtirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish ishlarini samarali tashkil etilishiga alohida e‘tibor qaratish zarur.

Ushbu davrda bolalar bilan o‘tkaziladigan barcha tadbirlarni yengillashtirish, qiziqarli va ko‘tarinki o‘tishini ta‘minlash, o‘yin jarayonini faollashtirish, turli ko‘ngilochar tadbirlar, kichik sayrlarni muntazam tashkillashtirish, ijodiy va amaliy

III BOB. YOZGI SOG‘LOMLASHTIRISH ISHLARIDA HAMKORLIK

VA BOSHQARUV

3.1. Maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarining yozgi sog'lomlashtirish davrini samarali tashkil etishdagi asosiy vazifalari

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori va direktor o'rinbosarlari hamkorlikda quyidagi ishlarga rahbarlik qilishi lozim:

Ma'muriy-xo'jalik ishlari: xo'jalik mudiri (xo'jalik ishlarini bo'yicha direktor o'rinbosari) bilan birgalikda hududni obodonlashtirish, maydonchalar, gulzor, qum yashiklarini to'ldirish, hovuz (basseyn)ni qurish, o'rmonchilik va uning hududini ta'mirlash, ularni bo'yash, daraxt va butalarni ko'paytirish (berish), ishlarni amalga oshirish;

SanQvaM talablariga mos jismoniy tarbiya va o'yin maydonlarini jihozlash; yer maydonlarini sug'orish, hovliga suv sepish uchun tarmoqlarni ta'mirlash; bolalar ochiq havoda vaqtini o'tkazish uchun o'qituvchi o'ylantiruvchi muhit yaratish;

xonalarga hasharotlarning uchib kirishini oldini olish maqsadida derazalarni doka yoki setka bilan, eshiklarni metall to'rtburchakli qoplamalar bilan, 0,5 mm dan ortiq bo'lmagan sintetik materiallar bilan yopish o'rnatilgan;

tashqi va ichki hojatxonalarini yil davomida yulfofillardan ishlangan eshiklaridagi oynalarni sinmaydigan, ichki va tashqi eshiklarni plyonka bilan qoplangan maxsus oynalarga almashtirish chiqarishni kuzatib borish;

Tarbiyaviy jarayonini tashkil etish:

direktor o'rinbosari, psixolog, jismoniy tarbiya yo'riqchisi, musiqa rahbari va psixolog) va tarbiya jarayonini ta'minlash maqsadida ta'lim-tarbiya jarayonini "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida ko'rsatmalar va namunaviy o'quv reja va 4-ilova namunaviy yillik mavzuli rejaga ko'ra tashkil etishni tashkil etish;

har bir maktabgacha ta'lim tashkiloti o'z faoliyati doirasida, hududiy komponentni inobatga olib, yozgi sog'lomlashtirish davrini rejalashtirish;

rejalashtirish maktabgacha ta'lim tashkilotining ustavida belgilangan ish vaqti, kun tartibi va muddatini bo'lgan imkoniyati asosida amalga oshirish;

maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturi asosida ta'lim-tarbiya jarayonini ta'minlashda uslubiy maslahat va ko'rsatmalar berish;

maktabgacha ta'lim tashkiloti tomonidan tashkil etilgan yozgi sog'lomlashtirish davridagi barcha chiniqtirish tadbirlarini o'z vaqtida o'tkazish va ta'lim-tarbiya jarayonini nazoratga olish.

Tibbiy ishlarni tashkil etilishi:

tibbiy xonani birinchi yordam uchun zarur dori vositalari bilan to'liq ta'minlash, mavsumiy taomnomalarni "Yagona mavsumiy taomnoma" asosida mavsumga mos tuzilishi, bolalarni sog'lomlashtirish va chiniqtirish tadbirlarini tashkil etilishiga rahbarlik qilish;

sog'lomlashtirish va chiniqtirish tadbirlarini o'tkazish uchun zarur sharoitlarni yaratish.

3.2. Ota-onalar bilan hamkorlik ishlari

Yozgi sog'lomlashtirish davrida ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini samarali tashkil etish bolalarning sog'lom rivojlanishini ta'minlash, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish hamda oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti

oʻrtasidagi hamkorlikni mustahkamlashda muhim aҳamият kasb etadi. Shu sababli yozgi davrda ota-onalarni sogʻlomlashtirish tadbirlariga faol jalb qilish, ular bilan muntazam pedagogik va targʻibot ishlari olib borish tavsiya etiladi.

Ota-onalar bilan hamkorlik ishlari bolalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etilib, oilada sogʻlom muhit yaratish, bolalarning kun tartibiga rioya qilishi, toʻgʻri ovqatlanishi, jismoniy faolligi va chiniqtirish tadbirlarini davom ettirishga yoʻnaltiriladi.

Yozgi sogʻlomlashtirish davrida ota-onalar bilan quyidagi shakllarda hamkorlik ishlari olib boriladi:

sogʻlom turmush tarzini shakllantirish boʻyicha maslahat va tavsiyalar;

bolalarni chiniqtirish va sogʻlomlashtirishga oid tavsiyaviy suhbatlar;

“Ochiq eshiklar kuni” tadbirlarini tashkil etish;

ota-onalar va bolalar ishtirokida sport bayramlari hamda musobaqalarni oʻtkazish;

sanitariya-gigiyena qoidalari va xavfsizlik choralariga oid targʻibot ishlari;

yozi davrda bolalarning toʻgʻri ovqatlanishini tashkil etish boʻyicha tavsiyalar;

bolalarning boʻsh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid tavsiyalar va koʻrgazmali materiallar tayyorlash.

“Ochiq eshiklar kuni” tadbirlari orqali ota-onalar yozgi sogʻlomlashtirish jarayonlari, taʼlim-tarbiya faoliyatlari hamda bolalar uchun yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega boʻladilar.

Sport bayramlari va oilaviy musobaqalar esa ota-onalar va bolalar oʻrtasidagi ijobiy munosabatlarni mustahkamlash, sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish hamda jismoniy faollikni ragʻbatlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ota-onalarga bolalarni yozgi davrda quyosh, havo va suv yordamida chiniqtirish, ichimlik rejimiga rioya qilish, mavsumiy kasalliklarning oldini olish hamda xavfsizlik qoidalariga amal qilish yuzasidan tavsiyalar berib borilishi lozim.

Oila va maktabgacha taʼlim tashkiloti oʻrtasidagi samarali hamkorlik bolalarning sogʻlom rivojlanishi, emotsional barqarorligi va yozgi sogʻlomlashtirish tadbirlarining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

XULOSA

Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida yozgi sogʻlomlashtirish ishlarini samarali tashkil etish bolalarning sogʻlom rivojlanishini taʼminlash, ularning jismoniy, aqliy, ijtimoiy va emotsional holatini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yozgi davr bolalar uchun faol dam olish, tabiat bilan bevosita muloqot qilish, harakat faolligini oshirish hamda sogʻlom turmush tarzini shakllantirish uchun qulay pedagogik muhit hisoblanadi.

Mazkur metodik tavsiyada yozgi sogʻlomlashtirish ishlarini tashkil etishning mazmuni, shakl va usullari, chiniqtirish tadbirlari, ochiq havodagi faoliyatlar, taʼlim-tarbiya jarayoni, madaniy-koʻngilochar tadbirlar hamda ota-onalar bilan hamkorlik yoʻnalishlari tizimli yoritib berildi.

Shuningdek, sanitariya-gigiyena va xavfsizlik talablariga rioya etish, bolalar hayoti va sogʻligʻini muhofaza qilish, tibbiy-pedagogik nazoratni tashkil etish boʻyicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Yozgi sogʻlomashtirish tadbirlarini ilmiy-metodik asosda tashkil etish orqali bolalarning immunitetini mustahkamlash, harakat faolligini oshirish, ijodiy va bilish qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, sogʻlom turmush tarziga boʻlgan ijobiy munosabatini shakllantirishga erishiladi.

Metodik tavsiyaning amaliyotda samarali qoʻllanilishi maktabgacha taʼlim tashkilotlarida yozgi davrni mazmunli, xavfsiz va pedagogik jihatdan samarali tashkil etishga xizmat qiladi hamda sogʻlom va barkamol avlodni tarbiyalashga munosib hissa qoʻshadi.

*Zokirjon Admin bilan
+99891-328-88-38 nomerga telegramdan
yozishingiz yoki telegramdan jek567 izlab
telegramdan yozishingiz so‘raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida
javob beriladi.*

*XIBDO‘ yoz davrimetodik tavsiyasini to‘liq
holda olish uchun telegramdan yozing.*



Telegram kanalimiz:

@maktabgacha_tt

To‘lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik
sharti bilan olishingiz mumkin.

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To‘liq holda olganingizdan so‘ng:

Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin
insoningizga ham.

Internet veb-saytlarga joylamang.

Telegram orqali kanal va gruppalarga
tarqatmang.

**OMONATGA HIYONAT
QILMANG.**

ONLINE KOMPYUTER XIZMATLARI

O‘zbek va rus bog‘chalari uchun
Buyutrma asosida

MTT direktori, direktor o‘rinbosari, MTT psixologi, defektologi, musiqa rahbari, jismoniy tarbiya yo‘riqchisi, MTT hamshirasi, XIBDO‘ va tarbiyachilar uchun:

testlar, to‘garaklar, bayram tadbir senariylari, ochiq faoliyat ishlanmalar va slaydlar (taqdimotlar), refetarlar, mustaqil ishlar, ko‘rgazma va tarqatmalar, faxriy yorliq, diplom, tashakkurnomalar va boshqa hujjatlarni tayyorlab beramiz.

Tel:91669-34-74 Telegramdan: @talimxizmatlar izlab toping.

Подготавливаем для директора МТТ, заместителя директора, психолога МТТ, дефектолога, музыкального руководителя, инструктора по физической культуре, медсестры МТТ, ХИБДО и воспитателей:

тесты, кружки, сценарии праздничных мероприятий, разработки открытых занятий и слайды (презентации), рефераты, самостоятельные работы, выставки и раздаточные материалы, почётные грамоты, дипломы, благодарственные письма и другие документы.

Тел: 91669-34-74 Telegram: @talimxizmatlar (найдите по поиску)